

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	
219e	
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



XORIJY INVESTITSIYALARINI JALB QILISHDA XALQARO SAVDO SHARTNOMALARINING ROLI

Xodjayev Jamshid Abduxakimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida xalqaro savdo shartnomalarining o'rni va ahamiyati tizimli ravishda o'rganiladi. Zamonaviy global iqtisodiyotda mamlakatlararo iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalar oqimini rag'batlantirishda xalqaro savdo shartnomalari muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotning maqsadi - xalqaro savdo shartnomalarining milliy investitsiya siyosati va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash, shuningdek, bu shartnomalar orqali xorijiy kapitalning jalb qilinish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada xalqaro savdo shartnomalari turlari, ularning huquqiy bazasi va investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlari batafsil yoritiladi. Shu bilan birga, milliy institutsiional infratuzilmaning mustahkamligi va shaffoflik darajasi ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, tadqiqotda milliy qonunchilikning xalqaro talablar bilan muvofiqlashtirilishi, shartnomalarning ratifikatsiyasi va ijrosi jarayonlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro savdo shartnomalari, investitsion muhit, huquqiy kafolatlar, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya oqimi, savdo siyosati, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article systematically studies the role and importance of international trade agreements in the process of attracting foreign investment. In the modern global economy, international trade agreements are an important tool in stimulating economic cooperation and investment flows between countries. The purpose of the study is to determine the impact of international trade agreements on national investment policy and economic development, as well as to analyze the mechanisms for attracting foreign capital through these agreements. The article provides a detailed description of the types of international trade agreements, their legal framework, and investment protection mechanisms. At the same time, the strength and level of transparency of the national institutional infrastructure also remain a decisive factor in attracting foreign investment. In addition, the study also examines the processes of harmonization of national legislation with international requirements, ratification, and implementation of agreements.

Keywords: international trade agreements, investment climate, legal guarantees, economic development, economic cooperation, investment flows, trade policy, sustainable development.

Аннотация: В данной статье системно исследуется роль и значение международных торговых соглашений в процессе привлечения иностранных инвестиций. В современной мировой экономике международные торговые соглашения являются важным инструментом стимулирования экономического сотрудничества и инвестиционных потоков между странами. Целью исследования является определение влияния международных торговых соглашений на национальную инвестиционную политику и экономическое развитие, а также анализ механизмов привлечения иностранного капитала посредством этих соглашений. В статье дается подробное описание видов международных торговых соглашений, их правовых основ и механизмов защиты инвестиций. При этом решающим фактором привлечения иностранных инвестиций также остаются прочность и уровень прозрачности национальной институциональной инфраструктуры. Кроме того, в исследовании также рассматриваются процессы гармонизации национального законодательства с международными требованиями, ратификации и имплементации соглашений.

Ключевые слова: международные торговые соглашения, инвестиционный климат, правовые гарантии, экономическое развитие, экономическое сотрудничество, инвестиционные потоки, торговая политика, устойчивое развитие.

KIRISH.

Globalizatsiya jarayonining tezlashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi zamonaviy dunyo iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim omilga aylanganini ta'kidlaydi. Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi, texnologik rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita sifatida ko'rildi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb qilish jarayonida



xalqaro savdo shartnomalari o'ziga xos strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular investitsion muhitni barqarorlash-tirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlarni ta'minlash hamda savdo va investitsiya oqimini rag'batlantirishda muhim rol o'yaydi.

Xalqaro savdo shartnomalari - bu davlatlar o'tasida erkin savdo rejimini yaratish, bojxona to'siqlarini kamaytirish va investitsion himoyani kuchaytirish maqsadida tuziladigan huquqiy hujjatlar bo'lib, ular ko'plab sohalarda, jumladan investitsiya faoliyatida ham yangi imkoniyatlar yaratadi [1]. Ayniqsa, Xalqaro investitsiyalar to'g'risidagi shartnomalar va erkin savdo shartnomalari davlatlar o'tasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlash-tirish, investorlarning xavfsizligini ta'minlash, investitsiyalar oqimini rag'batlantirish uchun muhim mexanizmlar sifatida qaraladi. Biroq, amaliyotda bu shartnomalarning samaradorligi va ularning investitsiyalarni jalg qilish-dagi o'rni mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sharoitlariga ko'ra sezilarli farq qiladi.

Mamlakatlar o'z investitsion siyosatini shakllantirishda xalqaro savdo shartnomalarining imkoniyatlari va cheklovlarini chuqur anglab yetishi, shuningdek, bu shartnomalarni iqtisodiy manfaatlarga moslashdirib, innovatsion va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishi talab etiladi [2]. Shu munosabat bilan, xalqaro savdo shartnomalari va xorijiy investitsiyalar o'tasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish, ularning investitsion muhitga ta'sirini o'rganish, shuningdek, ushbu shartnomalarni yanada samarali qo'llash usullarini aniqlash bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Xorijiy investitsiyalar va xalqaro savdo shartnomalari masalalari iqtisodiyot va xalqaro huquq sohalarida keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Bu sohada mahalliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari hamda ularning yondashuvlari mavzuning turli qirralarini ochib beradi va zamonaviy tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar orasida O'zbekiston iqtisodiyotining investitsion rivojlanishiga oid tadqiqotlar muhim o'rinn tutadi. Jumladan, M. Mirzaevning "O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yaxshilash strategiyalari" asarida xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar o'tasidagi uyg'unlikka alohida e'tibor qaratilgan [3]. Muallifning ta'kidlashicha, xalqaro savdo shartnomalari investitsion faoliyat uchun ishonchli huquqiy maydon yaratadi va shu bilan investorlarning sarmoya kiritish istagini oshiradi. Shu bilan birga, U.Rahmonovning "Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy integratsiya" kitobida savdo shartnomalarining mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdagi roli o'rganilgan bo'lib, ularning investitsiyalar oqimini rag'batlantirishdagi ta'siri aniqlandi.

Bundan tashqari, N.Xolmurodovning "O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi roli" asarida mamlakatning xalqaro savdo shartnomalarini amalga oshirishdagi amaliy tajribalari tahlil qilingan [4]. Muallifning fikricha, shartnomalarning investitsiyalarni jalg qilishdagi muvaffaqiyati nafaqat ularning mazmu-niy tomonlariga, balki milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq. Shuningdek, A.Qodirovning "Investitsion siyosat va davlatning roli" kitobida davlat siyosatining xalqaro savdo va investitsiya munosabatlaridagi strategik ahamiyati ko'rsatib o'tilgan [5]. S.Yo'ldoshevning "Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy taraqqiyot" asari esa xalqaro investitsion shartnomalar tizimini va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini yoritadi.

Xorijiy olimlar tomonidan xalqaro savdo shartnomalari va xorijiy investitsiyalar mavzusi keng ko'lamma tahlil qilingan. Misol uchun, Dani Rodrikning "The Globalization Paradox" asarida global savdo shartnomalari va milliy iqtisodiy siyosat o'tasidagi muvozanat masalalari muhokama qilinadi [6]. Rodrikning fikricha, xalqaro savdo shartnomalari investitsiyalarni jalg qilish uchun muhim platforma bo'lsa-da, ular milliy iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvorliklari bilan mos kelishi lozim. Robert C. Fogelning "The Escape from Hunger and Premature Death" kitobida esa investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o'tasidagi tarixiy bog'liqlik, shuningdek, savdo va investitsiya oqimlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan.

Raghuram Rajanning "The Third Pillar: How Markets and the State Leave the Community Behind" asarida xalqaro savdo va investitsiyalarni boshqarishdagi davlat va bozorning roli chuqur tahlil qilinadi [7]. Rajanning fikricha, xalqaro savdo shartnomalari investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytiradi, ammo ular mahalliy hamjamiyat va iqtisodiy barqarorlik bilan uyg'un bo'lishi zarur. Jagdish Bhagwati va T.N. Srinivasan tomonidan yozilgan "Trade and Investment: Toward a More Coherent Policy" esa xalqaro savdo shartnomalari va investitsiyalar o'tasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi hamda samarali iqtisodiy siyosat ishlab chiqishga yo'l ko'rsatadi [8].

Shuningdek, John H. Dunningning "Multinational Enterprises and the Global Economy" asari xalqaro korporatsiyalar va ularning investitsiya faoliyatiga savdo shartnomalarining ta'sirini batafsil yoritadi [9]. Dunningning FDI (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar) nazariyasi asosida xalqaro savdo shartnomalarining investitsiyalar oqimini rag'batlantirishdagi roli aniq ko'rsatilgan.

Ushbu mahalliy va xorijiy tadqiqotlar xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda xalqaro savdo shartnomalarining rolini turlicha usulda yoritadi. Ularning umumiy xulosasi shuki, savdo shartnomalari investitsion muhitni barqarorashtirish, investorlarni himoya qilish va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish uchun zarur huquqiy hamda institutsional asos yaratadi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi mamlakatlarning ichki siyosati, iqtisodiy



sharoitlari hamda xalqaro munosabatlarda tutgan o'rniga bog'liq. Tadqiqotlarda shartnomalarni takomillashtirish va milliy siyosat bilan uyg'unlashtirish zarurati bir necha bor ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda xalqaro savdo shartnomalarining xorijiy investitsiyalarni jalg qilishdagi rolini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili, qiyosiy yondashuv va iqtisodiy-statistik usullar qo'llanildi. Mahalliy va xorijiy mamlakatdan olingan nazariy asoslar o'rganilib, turli mamlakatlarning savdo shartnomalari va investitsiya oqimlari taqqoslandi. Shuningdek, ekspertlar bilan suhabatlar o'tkazilib, amaliy muammolar va takliflar tahlil qilindi. Bu metodologiya mavzuni tizimli va keng qamrovda yoritishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJA.

Ushbu tadqiqot natijalari xalqaro savdo shartnomalarining xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda muhim rol o'yinashini aniq ko'rsatdi. Iqtisodiy va statistik tahlil natijalariga ko'ra, xalqaro savdo shartnomalari imzolangan mamlakatlarda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshadi. Bu shartnomalar investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, savdo to'siqlarini kamaytirish va investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash orqali investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi.

Qiyoziy tahlil mamlakatimiz va boshqa rivojlanayotgan davlatlar misolida xalqaro savdo shartnomalari samarasining turlicha ekanligini ko'rsatdi. Mamlakat ichki siyosati, iqtisodiy barqarorlik darajasi, institutsional muhit va davlat siyosati investitsiya oqimiga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Misol uchun, mamlakatimiz kabi rivojlanayotgan davlatlarda xalqaro shartnomalar imzolangan bo'lsa-da, ular amalda to'liq tatbiq etilmayotgani yoki ichki huquqiy muhitning yetarli darajada rivojlanmagani investitsiyalar hajmining kutilgan darajada oshmasligiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, xalqaro shartnomalarning samaradorligini oshirish uchun ularni milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish va investitsion muhitni yaxshilash zarurati mavjud. Xalqaro savdo shartnomalarining afzalliklari bilan birga, ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Xususan, ba'zi mamlakatlarda shartnomalar shaffofligi va tushunarlligida kamchiliklar, shuningdek, amalga oshirishdagi muvofiqlikning pastligi investorlarning ishonchini susaytirishi mumkin. Bundan tashqari, global iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar, proteksionistik tendensiyalar va savdo munosabatlarining murakkablashuvi shartnomalarning ta'sir doirasini cheklashi mumkin [10].

Biroq, tadqiqotda qayd etilgan asosiy xulosa shuki, xalqaro savdo shartnomalari xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda samarali vosita hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, shartnomalarning amalda o'z samarasini berishi uchun investitsion muhitning boshqa tarkibiy elementlari - qonunchilik bazasi, sud-huquq tizimi, moliyaviy barqarorlik kabi omillar bilan birga rivojlantirilishi talab etiladi.

Ushbu natijalar xalqaro savdo shartnomalarini takomillashtirish, ularni milliy siyosatga moslashtirish va investitsiyalarni jalg qilish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish zaruratinu ta'kidlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya muhitini yaxshilash, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos keladigan shartnomalarni ishlab chiqish muhimdir.

Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida shartnomalarning ijrosini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash va amaliy muammolarni bartaraf etish uchun mexanizmlarni rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, balki mamlakatning jahon iqtisodiy maydonidagi raqobatbar-doshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro savdo shartnomalari xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda asosiy vositalardan biri bo'lib, ularning samarali qo'llanilishi uchun xalqaro va milliy darajadagi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar uyg'unlashtirilishi zarur. Ushbu tadqiqot natijalari mamlakatlar investitsiya siyosatini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'la oladi. (1-jadval)

1-jadval: Xalqaro savdo shartnomalarining asosiy turlari va ularning investitsiyalarni jalg qilishga ta'siri

Nº	Shartnoma turi	Asosiy maqsadlari	Investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari
1	Erkin savdo shartnomalari	Savdo to'siqlarini kamaytirish	Imtiyozli tariflar, bojxona rasmiylashtirishning yengilligi
2	Investitsiyalarni himoya qilish shartnomalari	Investorlarni huquqiy himoya qilish	Arbitraj mexanizmlari, mulkni xususiylashtirishga qarshi kafolatlar
3	Bitimga asoslangan sheriklik	Iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish	Birgalikda loyihalar, texnologiya almashinivi
4	Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik shartnomalari	Moliyaviy resurslarni jalg qilish	Kreditlar, grantlar, investitsiya kafolatlari



Jadvalda xalqaro savdo shartnomalarining turli turlari va ularning xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga ko'rsatadigan asosiy ta'sirlari yoritilgan. Erkin savdo shartnomalari eksport-import operatsiyalarini soddalash-tirish va bojxona to'siqlarini kamaytirish orqali investitsiya muhit uchun qulay sharoit yaratadi. Investitsiyalarni himoya qilish shartnomalari esa investorlar uchun huquqiy kafolatlarni ta'minlab, ularning xavfsizligini oshiradi va shartnoma tomonlarining o'zaro ishonchini mustahkamlaydi. Bitimga asoslangan sheriklik esa iqtisodiy hamkorlikni kengaytirib, birgalikda loyihalarni amalga oshirish va texnologiya almashinuvni imkoniyatlarini oshiradi. Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik shartnomalari orqali esa moliyaviy resurslar, kredit va grantlar jalg etilib, investitsiya hajmi oshadi. Ushbu turdag'i shartnomalar milliy iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini ko'payti-rish va investitsiya muhitini barqarorlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro savdo shartnomalari xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida xalqaro shartnomalarning investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, savdo to'siqlarini kamaytirish va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlash-dagi roli aniqlandi. Bu esa investitsiyalar oqimining ko'payishiga va mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro savdo shartnomalarining samaradorligi nafaqat shartnomalarning mazmuniy qismi va xalqaro miqyosdagi mexanizmlar bilan bog'liq, balki ularning milliy qonunchilik, iqtisodiy siyosat va institutsional muhit bilan uyg'unligiga ham bog'liq ekanligi aniqlanmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan mamlakatimiz, shartnomalarni amaliyatga tatbiq etishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, qonunchilik bazasini takomillashtirish va investitsion muhitni yaxshilash yo'lida tizimli ishlarni davom ettirishi lozim.

Tadqiqot shuningdek, xalqaro savdo shartnomalarining investitsiyalarni jalg qilishda faqatgina huquqiy vosita emas, balki iqtisodiy va siyosiy integratsiyani chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu sababli, mamlakatlar o'zaro savdo va investitsiya shartnomalarini ishlab chiqishda milliy manfaatlar bilan bir qatorda mintaqaviy va global iqtisodiy jarayonlarni ham hisobga olishi zarur.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar – shartnomalarning noto'liq amalga oshirilishi, siyosiy va iqtisodiy muhitning barqaror emasligi hamda institutsional qo'llab-quvvatlashning yetarlichcha emasligi – investitsiyalar oqimini susaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatildi. Shu bois, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar hamkorligida shartnomalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, monitoring va baholash tizimini joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro savdo shartnomalari xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning samarali qo'llanilishi milliy iqtisodiy barqarorlik, qonunchilik islohoti va xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishiga bog'liq. Shu sababli, mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va investitsion jozibadorligini mustahkamlash uchun xalqaro savdo shartnomalarini yanada takomillashtirish va ularni milliy siyosat bilan uyg'unlashtirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar ishlab chiqishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, M. (2019). Xalqaro investitsiyalar va ularni jalg qilish strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Qo'qonov, S. (2021). Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot. Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashri.
3. Tursunov, R. (2018). Investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro shartnomalarning roli. Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 2(4), 55–56.
4. Karimova, N. (2020). Xalqaro savdo shartnomalari va O'zbekiston investitsiya siyosati. Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari, 15(3), 87–89.
5. Islomov, A. (2017). Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri. Iqtisodiyot va boshqaruv, 10(2), 34–37.
6. Baldwin, R. (2016). The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. Harvard University Press.
7. Dunning, J.H. (2008). Multinational Enterprises and the Global Economy. Edward Elgar Publishing.
8. Sauvant, K.P., Sachs, L.E. (eds.) (2009). The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties, and Investment Flows. Oxford University Press.
9. UNCTAD (2024). World Investment Report 2024: International Tax Reforms and Sustainable Investment. United Nations Conference on Trade and Development.
10. Maskus, K.E. Private Rights and Public Problems: The Global Economics of Intellectual Property in the 21st Century. Peterson Institute for International Economics.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100